

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi 107

J.M.Hamrakulov

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari 117

R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili 120

G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv 123

O.X.Rashidova

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

Z.D.Rasulova

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish 131

Н.Э.Юлдашева

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания 136

Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования 139

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli 145

M.I.Ne'matov

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

I.X.Turdiboyev

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar 160

IQTISODIYOT**X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики 164

FALSAFA**N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar 171

B.B.Dehqonov

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati 180

I.J.Jabborov

Shayx Najmiddin Kubro ruboilarida ishq falsafasi 184

G.N.Navro'zova

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil 187

M.E.Xujamov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

F.A.Ibroximov

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati 197



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK XORIJY TIL O'QITUVCHILARINING GENDER MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEKNOLOGIK YONDASHUV**

**ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДОЛОГИИ
РАЗВИТИЯ ГЕНДЕРНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА**

**TECHNOLOGICAL APPROACH IN IMPROVING THE METHODOLOGY OF GENDER
CULTURE DEVELOPMENT OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**

Otaboyeva Gulxayo Ilhomjon qizi¹

¹Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Mamataliyeva Zilola Gulomovna²

²Farg'ona viloyati Furqat tuman kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlanirish metodikasini takomillashtirish nazariy-metodologik asoslari, rivojlanirishning pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlanirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv tahlil qilingan.

Аннотация

В статье изучаются теоретико-методологические основы совершенствования методики развития гендерной культуры будущих учителей иностранного языка, педагогические механизмы и технологические основы развития. Также анализируются технологический подход в совершенствовании методологии развития гендерной культуры будущих учителей иностранного языка.

Abstract

In the article, the theoretical-methodological foundations of improving the methodology of gender culture development of future foreign language teachers, pedagogical mechanisms and technological foundations of development are studied. Also, technological approach in improving the methodology of gender culture development of future foreign language teachers are analyzed.

Kalit so'zlar: gender, gender madaniyat, metodika, hamkorlik, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyiha, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Ключевые слова: гендер, гендерная культура, методология, сотрудничество, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент.

Key words: gender, gender culture, methodology, cooperation, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim rivojida urf-odat, an'ana va ilmiy qadriyatlarni takomillashtirish masalalari, jamiyat taraqqiyotida urf-odat va an'analarning o'rni hamda ahamiyatini ilmiy tahlil qilish umummilliy, ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar tarzida, dolzarb muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Demak, ma'naviy yangilanish jarayonida urf-odat, an'ana va qadriyatlarni tadqiq etishga nafaqat nazariy metodologik, shu bilan birga, amaliy jihatdan qiziqishning ortib borishi tabiiydir. Mazkur jarayonda yoshlarga milliy urf-odat va an'analarni o'rgatishda, ularga nisbatan munosabatni qaror toptirishda gender omillar ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlanirish metodikasini takomillashtirish nazariy-metodologik asoslari, rivojlanirishning pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslari, shuningdek, xotin-qizlarning gender tengligini ta'minlash, ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish, ularning xuquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari P.Konnella,

P.Burdye, Dj.Skott, V.Spayk Peterson, O.A.Voronina, N.Najib, E.Xelen, A.Kitchen, M.Kovalskiy, D.Ruts, L.Xusniy kabi jahonning yetakchi olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda o'quv-biluv jarayonida gender farqlar va o'ziga xosliklarni hisobga olish tabiiy-pedagogik hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq didaktikada ushbu hodisaning ilmiy talqini mavjud emas. O'quv-biluv jarayonida gender farqlarga oid o'ziga xosliklarni hisobga olmasdan turib, ta'lism natijasining samaradorligini ta'minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislarga ayon bo'limoqda. Ayniqsa, ruhshunoslar bu sohada bir qator yutuqlarni qo'lg'a kiritmoqdalar.

Bugungi kunda faol iste'molda bo'lgan gender so'zining tushunilishi va qo'llanish holatlaridagi noto'g'ri talqin va tasavvurlar mavjudligini aytish joiz. Xususan, genderni ayollar mavzusi yoki ularning ustunligiga oid tushuncha deb qarash kuzatiladi. Albatta, bu to'g'ri emas. Gender – bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti hamda faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatni ekanligi mazkur qonunda aniq yozib qo'yilgan. Bu masalaga oid tushunchalarga berilgan tegishli izohlarning mavjudligi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, gender masalalari barchani qiziqtiradi – bugungi o'quvchi-yoshlar, ertangi kunning ota-onalari va o'qituvchilari yoki soha mutaxassislari, kasb-hunari va yo'nalishidan qat'i nazar, hammamiz gender yondoshuviga asoslangan bilimlarga muhtojmiz. Jumladan, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchilar ham tobora ko'proq ta'lim oluvchilarning gender identikligini (xususiyatlarini) hisobga olishga kirishdilar. Gender yondoshuvga asoslangan ta'lim – bu shaxsning psixologik jinsi, ya'ni jinsiy o'zini anglash va jinsiy identifikatsiyaning ma'lum darajasiga erishish, erkak yoki ayol rolini haqiqiy egallah. Gender tadqiqotlari sohasining predmeti ham shaxslarning ijtimoiylashuvi bo'lib, u gender identifikatsiyasini shakllantirish va gender rollarini ishlab chiqishdan iboratdir. Respublikamiz ta'lim muassasalarida gender yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqotlarning olib borilishi bo'lg'usi mutaxassislar ijtimoiy faolligining yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllanishiga yordam beradi.

Hozirgi globallashuv jarayonida intizomli, mas'uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e'tiqodli, bag'rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va shu kabi oliyanob fazilatlar egasi bo'lgan yoshlarga yashash uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'la oladilar. Ijtimoiy taraqqiyotning demokratik rivojlanish jarayonini shaxsning o'z-o'zini anglashi qadr-qimmatini qay darajada e'zozlay olishi, jamiyat uchun xizmat qila olish imkoniyati va harakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi shaxsning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi bilan bog'liqdir.

Sotsiologlar va psixologlar insonni butun hayotiy yo'il davomida ijtimoiy axloq normalariga va modellariga o'rgatishda "ijtimoiylashuv" atamasidan foydalanadilar. Bunda odatda ijtimoiylashuvning uchta bosqichini ajratib ko'rsatadilar: dastlabki yoki boshlang'ich – oilada bolaning ijtimoiylashuvi; o'ttacha yoki ikkilamchi – makkabdag'i ijtimoiylashuv; va uchinchisi yoki yakunlovchisi – katta yoshli insonning ijtimoiylashuvi (kasbga, oilaga doir rollarni qabul qilish). Qayta ijtimoiylashuv tushunchasi ham mavjud. E.Giddensning ta'riflashicha, bu ilgari o'zlashtirilgan ahloq normalari va namunalari buzilishi natijasida undan keyin boshqacha normalarni o'zlashtirish yoki ishlab chiqish jarayoni yuz beradigan jarayondir. Odadta qayta ijtimoiylashuv tang vaziyatga tushib qolish bilan yuz beradi, biroq uning transformatsiya jarayonlari davrida yuz berishi ehtimoli ancha ko'pdir. Ijtimoiylashuv jarayoniga duch kelgan guruhlari yoki ijtimoiy kontekstlar (sohalar) ijtimoiylashuv agentlari yoki muassasalari sifatida chiqadilar. Ijtimoiylashuvning asosiy agenti va instituti, ayniqsa uning ilk bosqichida, bu oiladir. Bir mucha keyingi bosqichlarida maktab, tengdoshlarning guruhlari, "ahamiyatga ega boshqalar", oliy maktab, ommaviy axborot vositalari, "ishxona" va boshqalar o'zgacha ta'sir agentlari paydo bo'ladi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, deyarli barcha madaniyatlarda o'g'il va qiz bolalarni ijtimoiylashtiruv jarayoni turlicha kechadi. Rivojlanish psixologiyasida bu jarayon farqlanuvchi ijtimoiylashuv deb nom olgan. U hali farzand tug'ilishidan oldin boshlanadi. Nima uchun ota-onalar va yaqin qarindoshlar bolaning jinsini oldindan bilmoqchi bo'lishadi? Chunki shunga qarab ular bolaga ism tanlashadi, chaqaloq uchun kerakli kiyimlarni tanlashadi. Bolaning jinsiga qarab ota-onalar unga o'ynichoqlar sotib olishadi: qiz bolaga – qo'g'irchoqlar, idish-tovoqlar; o'g'il bolaga esa – mashinalar, konstruktur xarid qilishadi.

PEDAGOGIKA

Amerikalik olimlarning bolalarga o'yinchoq tanlash borasidagi farqliklar to'g'risidagi tadqiqotlariga ko'ra, o'g'il bolalarda harakat aktivligini va aqlni rivojlantiradigan o'yinchoqlar ko'proq bo'lib, qiz bolalarda esa boshqa odamlar bilan muloqotda bo'lib va verbal faoliyk ko'rsatishga qaratilgan o'yinchoqlar olib berilar ekan. Belorussiyalik psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, otalar onalarga qaraganda bolalarni jinsi bo'yicha farqlashga moyildirlar. Otalar o'g'illari bilan muloqotda bo'lganda, ko'proq faol harakatlari o'yinlarni olib boradilar, qizlariga esa ko'proq ruhiy ko'mak beradilar. Onalarda bu holat kamroq ifodalangan, lekin ular qizlariga qaraganda o'g'illarining urushqoq xulq-atvoriga toqatliroq bo'ladir.

Muammoning nazariy tahlili va eksperiment ishining boshlang'ich tajribasi genderli yondashuv asosidagi maktab modelining quyidagi tamoyillarini ta'riflash imkonini berdi:

- jismoniy, psixologik, ijtimoiy, ma'naviy salomatlikni saqlash tamoyili;

- tabiatga muvofiqlik tamoyili – u erkak va ayol individualligini qaror toptirish, jinslarning o'zaro munosabat madaniyatini, erkaklik va ayollikni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim mazmunida amalga oshiriladi;

- majmuaviylik tamoyili u vositalar majmui va integrativ dasturlardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Integratsiya jarayonlari xilma-xil shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: tanlov bo'yicha o'quv fanlari majmuasini yaratish; jins faktorini hisobga olib, ta'lim shakllari va metodlarini yaratish; yangi ta'lim fezosini yaratish;

- ijtimoiylik tamoyili – u maktab bitiruvchilarida odamlar bilan o'zaro munosabatlarni qurish uquvlarini shakllantirish, o'z hulq-atvor strategiyasini ishlab chiqish konkret hayotiy muammolarni hal qilish uquvlarini shakllantirishga qaratilgan.

Bu ta'riflangan tamoyillar bir jinsli sinflarda ta'lim oluvchi qmzlar va o'smirlar uchun xos umumiyligi xislatlarni aniqlash imkonini beradi. Bular jumlasiga quyidagilar xosdir: o'qishda psixologik to'siqlarning yo'qligi; jismoniy va ma'naviy takomillashuvga ehtiyoj; erkak va ayol individualligini qabul qilish, uning betakrorligi va noyobligi; jinslar orasida do'stona munosabat yaratish va o'qitish; o'z kuchlariga ishonch, o'z-o'zi bo'lish qobiliyati.

Odatdagagi maktabda bunday ta'lim bo'lishi mumkinmi degan savol beixtiyor tug'iladi. Bo'lishi mumkin, lekin samarasini eng kam bo'ladi. Bu odatdagagi maktabda ta'lim vektori bolalarni bilimlarni o'rgatishga yo'naltirilganligi, shu bilan birga qancha erta bo'lsa, shuncha yaxshiligi bilan bog'liqdir. Bunda boshlang'ich maktabda sinchkov, zehni o'tkir o'quvchidan kelgusida kuchsiz irodali o'rtacha o'quvchi o'sib yetilishi mumkin. Maktabdagagi a'lochi hayotda unchalik muvaffaqiyatli bo'lmasisligi ham mumkin. Buning ustiga qiz bolalar va o'g'il bolalarning psixologik xususiyalarining hisobga olinmasligi jinsning ichki qobiliyatlarini ochmasligi ham mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'smir yoshdagagi o'quvchilarning gender tenglikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishda jamiyat va uning o'zi to'g'risidagi bilimlari, ko'nikmalari, jamiyatdagagi o'zini tutish ko'nikmalari, shuningdek, ma'naviy yuksak fazilatlarni, insonning shaxsiy fazilatlarida namoyon bo'ladigan munosabatlarni, uning motivlari, qadriyat yo'nalishlarini ichki tizimga birlashtiradigan va ijtimoiy jihatdan erishish uchun tashqi resurslarni integratsiyalash imkonini beruvchi ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish hamda o'smir yoshdagagi o'quvchilarning gender tenglikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirish modelini har bir tarkibiy qismining holati, ularning o'zaro ta'siri ijtimoiy-pedagogik ish va pedagogik boshqaruv jarayoni bilan belgilash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Majidova X.E. Ta'lim jarayonida gender tenglik masalalari. № 1 (2023): "Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an'analar va istiqbollar" mavzusidagi I xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. <https://art.jdpu.uz/index.php/ppmedu/issue/view/209>

2. Битинас Б. П. Педагогическая диагностика: сущность, функции, перспективы // Совет, педагогика, — 1993. № 12. - С. 3.

3. Гаджиева Р. Г. Динамика гендерных стереотипов и их влияние на профессиональную самореализацию личности: Автореф. дис.... канд. психолог, наук. М., 2000. - 24 с.

4. Клецина И. С. Гендерная социализация. (Учебное пособие). СПб.: РГПУ им. А. И. Герцена. 1998. - С. 7.

5. Клима А. Гендерные вопросы и стереотипы в учебниках общеобразовательных школ// VI Xalqaro konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2003.